ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

RIVOYATLARDA OLAMGA MUNOSABAT VA SO'Z MAGIYASI TALQINI

Reymbayev Islom Baxadirovich
Nukus davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti.
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20570693

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq rivoyatlarining voqeasi turfa xil, lekin mazmuni bir xil bo'lgan falsafiy va so'z sehri bilan bog'liq tomonlari yoritilgan. So'z va olamga munosabat, o'g'zaki adabiyotda uning majoziy aks etishi kabi masalar o'rganilgan.
Kalit so'zlar: ramz, rivoyat, falsafa, mif, hikmat.

Adabiyot - hamisha azaliy savollarga javob izlaydi. Og'zaki adabiyot bo'ladimi yoki yozma adabiyot- barchasida maqsad bitta : inson va uning qalbini tasvirlash. Tabiatdagi deyarli hamma narsa inson tabiatiga o'xshash yoki qarama qarshi qilib yaratilgan. Masalan, "O'rdak sindromi" degan tushuncha bor, unga ko'ra, o'rdak bolasi birinchi nimani ko'rsa, shuni o'z onasi sifatida bilar ekan. Bu sindrom psixologiya ilmida kashf qilingan, ya'ni insonga birinchi qaysi qarash yoki tushuncha singdirilgan bo'lsa, u shu qolib asosida fikrlaydi va yashaydi.

Qadim sharq xalqlari bu kabi falsafiy masalalarga javob izlagan va og'zaki adabiyot orqali bizgacha yetib kelgan rivoyatlarda ajdodlarimizning o'ziga xos va majoziy hikmatlarini o'qib hayratlanmasdan boshqa iloj yo'q.

Bir kuni bir kuchuk shohning ko'zgudan yasalgan xonasiga qamalib qolibdi. Bu xonaning to'rt tomoni ham ko'zgudan iborat ekan. Ertasi kuni shoh va vazir xonaga kirgan vaqtda kuchukning o'ligini topishibdi. Shoh hayron bo'lib, vazirdan kuchuk nima sababdan o'lganini so'rabdi. Shunda dono vazir:"Kecha kuchuk shu yerga qamalib qolib, o'z aksiga nafrat bilan huribdi va barcha aksi unga shunday javob qaytaribdi. Bu jarayon ertalabgacha davom etib, kuchukning yuragi yorilib o'lib qolibdi. Agar kuchuk o'ynagisi kelib, mehr bilan dumini likillatganida edi, barcha aksi unga shunday javob qaytargan bo'lar edi", deb javob beribdi vazir.

Ko'zgu – olam, kuchuk esa tarbiyalanmagan ruhiyat ramzi sifatida tasvirlanmoqda rivoyatda. Insonning olamga bo'lgan munosabati va qarashlari shu darajada mohiyatdan yiroqki, shu sabab ham u isyonkor, g'azabga to'la va ezgulikdan ko'ra, bo'ysindirish, mavh etish, va itoatda ushlashga moylligi nihoyatda kuchli. M. Xaydegger ham ibtidoiy inson va zamonaviy insonni taqqoslar ekan, avvalgi insonlar tabiatdan zavq olishini, zamonaviy inson esa tabiatdan foyda ko'zlashini yozadi.

Ushbu rivoyatni quvvatlaydigan va yanayam teranroq ochib beradigan boshqacha turi ham uchraydi.

Bir kuni bir yigit daraxt soyasida dam olib o'tirgan ekan. U juda chanqabdi, hayoliga suv keltirgan ekan, daraxt yonida suv paydo bo'libdi. U xursand bo'lib suvni ichibdi. Keyin u och bo'lganini sezibdi, endi daraxt yonida ovqat paydo bo'libdi. Yigit bundan juda xursand bo'lib, ovqatni yeb olibdi. Keyin yigit qo'rqib ketib, bu daraxtda jinlar bo'lsa kerak, hozir qochmasam meni yeb qo'yadi, deb qochmoqchi bo'libdi. Shunda haqiqatan ham, jin va maxluqlar paydo bo'lib, yigitni yeb qo'yibdi.

Har ikkala rivoyatda ham so'z va fikr voqealikni keskin o'zgartiruvchi omil sifatida tasvirlanmoqda.

Mazkur rivoyatlarning jamiyat va shaxsga bog'liq bo'lgan yana boshqa varianti bor.

Bir sayyoh shahar darvozasi yonida o'tirgan qariyadan so'rabdi:

— Men bu shaharda yashamoqchiman. Ayting-chi, bu yerning odamlari qanday?

Qariya savolga savol bilan javob beribdi:

— Sen kelgan joyda odamlar qanday edi?

— Judayam yomon, hasadgo'y va urushqoq edi, — debdi sayyoh.

— Bu yerda ham odamlar xuddi shunday, — javob beribdi qariya.

Birozdan so'ng boshqa bir sayyoh kelib, xuddi shu savolni beribdi. Qariya yana so'rabdi:

— Sen kelgan joyda odamlar qanday edi?
— Judayam mehribon, ochiqko‘ngil va olijanob edi, — debdi ikkinchi sayyoh.
— Bu yerda ham odamlar xuddi shunday...

Alqissa, biz dunyoni qanday bo‘lsa, shunday ko‘rmaymiz, balki o‘zimiz qanday bo‘lsak, shunday ko‘ramiz.

Ammo birinchi va ikkinchi keltirilgan rivoyatlarda masala faqat jamiyat va shaxs haqida emas, balki inson, tabiat va olam haqidagi eng ko'hna falsafalardan biridir. Bu falsafaning kaliti esa avvalo , so’zga bo’lgan munosabatda ko’rinadi. O’g’zaki ijod namunalari yaratilgan mif lar zamonida har bir so’zga katta ma’no yuklab tasvirlangan.

Folklorshunos olim Shomirza Turdimov aytganidek, xalq tili o'z davrida jonli til bo'lgan, hozirda esa afsuski faqat tushuncha tili bo'lib bormoqda. Ajdodlarimiz har bir so'zning rang, musiqa va falsafasini teran his qilolgan, hozirda esa, bu hislatlardan uzoqlashib bormoqdamiz. Buni " Malika ayyor" dostoni orqali bilsak bo'ladi. Masalan, “Aylanay”, “o'rgilay” so'zlarini olaylik, buning ham ulug'vor ma'nosi va turkiy xalqlarga xos jihatlari bor: “Aylanay” so'zi sadaqa, qurbon qilish ma'nosini anglatadi. Xalq orasida sadaqa qilingan narsani boshi atrofida uch marta aylantirib, so'ng beriladi yoki o't bilan yomon ruhlar quvilsa bemor atrofidan o't aylantiriladi va h.k ...Boburning o'g'li Muhammad Humoyun Sanbalda olti oy yashagach, u yerning ob-havosi yoqmay xastalanib qoladi. Uni Dehliga olib keladilar, biroq ahvoli yaxshilanmaydi. Shunda Abulqosim ismli shaxs Boburga bunday damlarda yaxshi narsalardan birini sadaqa qilsa, bemor sog'ayib ketishini aytadi... “Mening ko'nglimga keldiki, Muhammad Humoyunning mendan o'zga yaxshiroq nimarasi yo'q. Men o'zim tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsin. ....O'shal holatga kirib, uch qatla boshidan o'rgilib, dedimkim, men ko'tardim harne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldim, u yengil bo'ldi. Ul sihhat bo'lib ko'pti, men noxush bo'lib yiqildim” [1:93]

“Huyya huy
Talqon tuy
bolalar o'yin qo'shig'ida:
Xaqqu, xaqqu bilak uzuk
O'ng qo'limda o'ng uzuk
tarzida ijro etilsa,

Beshqarsak raqs qo'shiqlari ijrosida huv/huy/hu/ hey, ha, hah ko'rinishida keladi....

Dzen buddaviy ta'limotida oliy quvvat “ku” dep atalib barcha insonlar vafot etgach unga qaytishi lozim dep bilishadi. Hu(v)/ ku ning mazmuni anglashiladi. Ko'rinib turibdiki hu/ huv/ ku barcha din va ta'limotlarda eng ko'hna mantra hisoblanib, oliy quvvat ifodasi, uning tajassumi sifatida qaralgani oydinlashmoqda”
[2:113]



Xalqimiz azaldan so'zning ilohiy qudatini chuqur anglagan. Yirik olim Masaru Emoto so'zlarning mo'jizaviy ta'sir kuchi haqidagi tadqiqoti insonni hayratga soladi. U suvlarni muzlatib yaxshi va yomon so'zlarni aytib ko'radi, tabiiyki, yaxshi so'zlarni va muqaddas kitoblardagi oyatlarni eshitgan muzlarda g'aroyib go'zallik aks etadi, yomon so'zlarni eshitgan muzlarda esa qo'rqinchli holat namoyon bo'ladi. Eng hayratlanarlisi esa, Gitler nomini eshitgan muz qorayib ketadi. Ko'zgu va kuchuk haqidagi rivoyatda ham, daraxt va yigit haqidagi rivoyatda ham, Emoto ilmiy isbotlagan haqiqatlarni, qadimgi insonlar majoziy va badiiy yo'l bilan tasvirlagan. Emoto ham suvlarni tahlil qilar ekan, inson organizmi ham 70% foiz suvdan iboratligiga e'tibor qaratib, odam tashqi muhitdan olayotgan har bir axborot va ma'lumotlar uning jismi va ruhiyatiga ta'sir qilish jarayonlarini tahlil qiladi. Olim Emoto inson, tabiat va olamning bir –biriga o'xshashligidan hayratga tushadi. Ota-bobolarimiz ham so'zning samoviy quvvatini va magik kuchini minglab yillar oldin anglashgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dunyo insonning unga bo'lgan munosabatidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Turdimov. Xalq qo'shiqlarida ramz. – Toshkent. 2020 y.
2. B.Sarimsoqov. "O'zbek marosim folklori". - Toshkent, 1986 y.